



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI.

Asilova Sanobar Xatambojeva

Qo'qon universiteti

"Ta'lim kafedrası" o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 6-7-yoshli bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning mazmuni, ahamiyati, maqsadi hamda vazifalari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, bola, rivojlanish, ta'lim, tarbiya, rivojlanish sohasi, kichik soha, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, ruhiy rivojlanish, "Men" konsepsiyasi, inqirozlar, muloqot.*

Kirish

Bugun yurtimizda mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar o'zlikni anglash, imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, o'sib kelyotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shahs qilib tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa maktabgacha ta'lim muassasalari zimmasiga yuklatilgan. Maktabgacha ta'lim-bolalarning ijtimoiy-hissiy, individual va yosh hususiyatlarini, qiziqishlarini, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bola shaxsini jismoniy, ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan yaxlit jarayonlarni qamrab olgan. Ta'lim sohasini isloh qilish bugungi kunda hukumatimiz tomonidan e'tibor qaratilayotgan eng muhim yo'nalishlardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonun va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni bosqichma-bosqich ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2022 yildagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi.⁸⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori misolida ko'radigan bo'lsak, mazkur kontsepsiyani yanada rivojlantirishga qaratilgan.⁸⁵

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2022 yildagi PF-269-son

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son



Xususan, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va ta'lim to'g'risida" gi qonuni qabul qilindi. Ta'lim tizimi to'g'risida bu yangi qonunda, yangi loyihalar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ushbu Qonun maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillarini, ushbu sohadagi davlat siyosatining yo'nalishlarini, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi,

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, o'z tasarrufidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining vakolatlarini belgilaydi.

Mazkur Konsepsiyada 2030 yilgacha 3-7 yoshli bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'zda tutilgan.

• Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Mazkur joriy tizimda innovatsiyalar, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengaytirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulash bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.⁸⁶ Shu maqsadda qonun ustuvorligini ta'minlash va uni amaliy tajribada tar'ib ettirish, jahon maktabgacha ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarni milliy ta'lim tizimida qo'llashda horijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan texnika va yuqori texnologiyalar, metodikalarni olib kirishni o'z loyiha ishimizda ko'rsatib o'tdik. Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga tayorlash, bolani sog'lom hamda rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantrish, qobiliyatlarini, ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari Davlat talablari asosida foliyat olib boradi. Davlat talablarining asosiy maqsadi mamlakatda o'tkazilyotgan ishtimoiy – iqtisodiy isloxlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutqlari va zamonaviy infarmotsiyon kommunikativ tenalogiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimda ma'nan mukamal va intllektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.⁸⁷ O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra bolaning rivojlanish sohalri, ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishida kattalar va tengdoshlari bilan muloqotchanlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

- Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantrish;
- Ishtimoiy –hissiy rivojlanish;
- Nutq,muloqot, o'qish,yozish malakalari;
- Bilish jaroyonini rivojlantrish;
- Ijodiy rivojlanish;

⁸⁶ <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-maktabgacha-talim-tizimini-2030-jilgacha-rivozhlantirish-konsepsiyasi-amalda>

⁸⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-5179335?ONDATE=05.04.2022>



Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- -"Men" konsepsiyasi;
- -hissiyotlar va ularni boshqarish;
- -ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasida bola o'z "Men" i va boshqa insonlarni hayotiy faoliyati to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi:

- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi

Maktabgacha ta'lim muassasasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. Rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakillantirish safda bir, ikki, to'rt kishi bo'lib yurish ijtimoiy-hissiy (emotsional) rivojlanish, o'z hissiyotlarini nazorat qilishni o'rganish, nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari bolaning og'zaki nutqini yoshiga muvofiq mustahkamlash ijodiy rivojlanish hamkorlikdagi faoliyatga ijobiy munosabatni shakillantirish, ritm hissini, musiqani his etish fazilatini harakatlarda ritmik ifodalilikni tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi va bilim olishiga oid ilmiy izlanishlar, bolaga yo'naltirilgan amaliyotda (BYA) juda muhim sanaladi. Mazkur izlanishlarda J.Piaje, L.S.Vigotskiy, Erikson va boshqalarning ilmiy qa-rashlari bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutadi. Jumladan, Shvetsiyalik psixolog Jan Piajening, Avstriyalik psixiatr, psixolog Z.Freyd, Sobiq Ittifoq olimi D.B.Elkning nazariyalaridan tadqiqotimizda keng foydalanildi. U. Djeyms bolada "Men" konsepsiyasini "Men-yaratuvchi" va "Men-obyekt" ga bog'lagan. "Men" konsepsiyasini ko'pincha yo'naltirilgan tushunchalar sifatida aniqlandi. Uning ichida "Men" uchta tarkibiy qismlarga ajratiladi:

- Kognitiv qism - "Men" qiyofam (inglizcha- Selg image), o'z ichiga shaxsning o'zi haqida taassurotini qamrab oladi.

- Emmotsional qadriyatlar (affektiv) - o'ziga shaxs sifatida, o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati. Bu tarkibiy qism, boshqacha aytganda, o'z-o'ziga baho berish tizimiga o'zini baholash tizimi (inglizcha-self-esteem) kiradi.

- Axloqiy fe'l - atvor qism, bu kognitiv va baholash qismlarining fe'l - atvorida namoyon bo'lishini xarakterlaydi. Masalan: nutqda, o'zi haqidagi fikrlarda o'zini anglab ko'rsatadi.

Rossiyalik X. Shinchenkova professor olimi maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolalarni o'rganish orqali ularning hissiy jarayonlarini amaliy tadqiqotlarida batafsil yoritgan.



F.Qodirovaning "Maktabgacha pedagogika" o'quv darsligida 6-7 yoshli bolalarning bilish jarayonlari, jumladan ulardagi ijtimoiy-hissiy rivojlanish jarayonlari va ularni riivojlantish haqida bir qator nazariy ma'lumotlar berilganligini ko'rishimiz mumkin. Unda 6-7 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari, Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ta'lim olishga tayyorlash, o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozimligi haqida fikrlar keltirib o'tilgan. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarovalarning "Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya" kitobida bu yoshda bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish jarayonida yuz beradigan inqirozlarni o'rganilgan. Unga ko'ra, maktabgacha yoshda bola o'zini jismoniy alohida mustaqil individ sifatida anglashdan, o'z hissiyot va kechinmalarini anglashgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi⁸⁸. O'z uyida yaqinlariga nisbatan quyidagi xulq-atvorni namoyon etadi: bolaga gapirganda javob reaksiyasi orasida tanaffusning paydo bo'lishi, ota-ona tomonidan buyurilgan ishni bajarishda vaqtni cho'zish, quloq solmaslik, qaysarlik, talabchanlik, injiqlik, maqtovni kutish kabi xulq-atvor shakllarini namoyon qiladi. Professor Y. Nurumbekovanning maktabgacha ta'lim va uni O'zbekistonda yangi istiqbollari haqidagi ko'plab tadqiqiy ishlari ham biz tanlagan mavzuga doir juda ko'p ma'lumotlarni taqdim etishiga. Yani, yosh avlodni har tomonlama yuksak saviyali va sog'lom qilib tarbiyalashdagi eng muhim ta'lim muassasasidan biri bu maktabgacha ta'lim ekanligi uning tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar jismoniy va fiziologik jihatdan rivojlanish, emotsional sohalaridagi rivojlanishlar yangi shaxsiy hayotga debocha hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Rivojlanishda kishidagi jismoniy, ruhiy, va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Bolaning hissiy rivojlanishi – bu uning idrokining rivojlanishi va ob'ektlarning tashqi xususiyatlari: ularning shakli, rangi, o'lchovi, fazodagi holati, shuningdek hidi, ta'mi haqidagi g'oyalarni shakllantirish. Erta va maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy rivojlanishning ahamiyatini yaxshilash, atrofimizdagi dunyo haqidagi g'oyalarni to'plash uchun eng qulaydir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o'rgatish hissi, psixologik zo'riqishlarga nisbatan bardoshli bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashishimiz lozim. Bolalar jamoasini shakllantirish axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalar o'z xulqlarining jamoa manfaati bilan bog'liqligi haqidagi bahoni eshitadilar. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezsa, u bilan g'ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo'lishi uchun intilsa, bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Bola muassasaga kelishi bilan bolalar jamoasining

⁸⁸Z.T.Nishanova,

N.G.Kamilova,

D.U.Abdullayeva,

M.X.Xolnazarova

"Rivojlanishpsixologiyasipedagogikpsixologiya" kitobii Toshkent-2019



a'zosi bo'lib qoladi, u boshqa bolalar bilan o'ynashi, mehnat qilishi, kelishishi kerak bo'lsa yon bosishi o'rganib oladi. Tarbiyachi bunda har bir bolaning hissiy – ijtimoiy qobiliyatini alohida baholab kuzatib borishi kerak.

Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan “Psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi” tushunchasining asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, ularning rahbarligida amalga oshiriladi degan mazmuni o'z ichiga oladi. Bolaning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli tumandir⁸⁹.

6-7 yoshdagi bolalar kattalarning samimiy diqqatiga va hamkorlikda ish olib borishga intilmaydi, balki kattalar bolalarni hurmat qilishlarini, o'zaro tushunishlarini xohlaydi. Bu yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o'zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan ehtiyoj kuchayib boradi. Faoliyatda ya'ni o'yin, mahsuldor faoliyatda tengdosh-sherigi sifatida qatnashadi. Tengdoshlari bilan muloqot davrida bolalar o'yinda va boshqa faoliyatda ma'lumotlar, rejalar, vazifalarning taqsimlanishi asosida birgalikda faoliyat olib borishga intiladi. Yoshga qarab muloqot bolaning hissiyotini, o'zaro tushunishini, tengdoshlariga nisbatan hissiy yaqinlikni tasvirlay boshlaydi. Bolalar tomonidan beriladigan taklif, iltimos, baholanish ancha asoslangan holda ifodalanadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalar rivojlanishining turli jihatlarini har tomonlama o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktabning birinchi sinflari bilan taqqoslaganda bolalar bog'chasining maktabga tayyorgarlik guruhlarida o'qiyotganda ular o'zlarini xotirjam, psixologik jihatdan erkin va o'ziga bo'lgan ishonchni his qilishadi. Shunday qilib, bola mustaqil bo'lishni xohlaydi, shuning uchun bolaga bu imkoniyatni berish kerak. U chizishni, plastilin va loydan asarlar yaratishni orzu qiladi – biz bunday holatlarda bolalarga erkinlik berishimiz kerak. Bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishni xohlaydi, do'st bo'lishni, janjallashib, sabr qilishni, kechirim so'rashni va kechirishni o'rganadi. Bu hayotiy tajribani to'plashdir, Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va atrofdagi dunyoni bilishga imkon beradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolaning ijtimoiy-hisiiy rivojlanishida shaxslararo munosabatlarni yetarlicha shakillanmaganligi sababli bu yoshdagi bolalar atrofidagi ko'p narsalarga noadekvat munosabatda bo'lishadi. Nega? degan savolga bugungi kunda bolaning birinchi tarbiyachilari televizor va zamonaviy gadjetlar, ekanligini javob qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bilamizki gadjetlar ko'pincha yangilik sifatida qabul qilinadi va katta qiziqish bilan o'rganiladi. Bunday qurilmalar har bittasi o'zining original dizayni bilan ham e'tiborni tortadi. Oqibatida bola shaxsida boshqa odamlarning his-tuyg'ularini e'tiborsiz qoldirish, muloqotchanlikning yo'qligigi kabi holatlari uchrab turibdi. O'z his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qilmaydigan bolalar aynan manashunday “Qaram” bolalar orasidan chiqishayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu asosan, juda kam kommunikatsiya qilish bilan ham tasniflanadi. Hozirda bolalar kun davomida qancha vaqtni shunday o'tkazishi, ota-onalari ularga qancha

⁸⁹ M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyeva “Yoshvapedagogikpsixalogiya”



vaqt ajratishlari haqida o'ylab ko'rishni fursati yetgan. Televideniya va gadjetlarga qaramlik bolaning ota-onalar, tengdoshlar bilan kommunikatsiyaning kamligi sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish yetarli bo'lmay qolmoqda. Shuningdek bolalardagi "Men" konsepsiyasini rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

- Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bolalikk davridan shakillanadi. Ota-onalar o'z farzandlariga shu yoshda vaqtlarini ajratmasalar, ular o'z farzandlarini kelajagini o'g'irlashadi. Ota-onalar bolalarni ijtimoiylashuvi va hissiy rivojlanishida eng muhim shaxs hisoblanadi. Bolalar ota-onalari yordamida ijtimoiylashuvni osonroq amalga oshiradi.

-Oiladagi qulay muhit va muntazam muloqot, rivojlantiruvchi o'yinlar va ijobiy his-tuyg'ular shaxsning uyg'un rivojlanishiga yordam beradi. Agar inson hissiy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, u hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishadi, ko'proq maqsadga intiladi va atrofdagilar bilan qiynalmasdan shaxslararo munosabatlarga kira oladi

-Agar bola Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borib, tengdoshlari bilan muloqotga kirishsa, tarbiyachi pedagoglar tomonidan ko'rsatmalarga to'liq rioya qilsa, bola shaxsida ijtimoi-hissiy tivojlanishida oson kechishini takidlab o'tishimiz lozimdir.

-Shuningdek, tarbiyachi pedagoglar bolalar bilan ishlash jarayonida har bir bolaga imkon qadar individual yondashish ularning xarakter,temperamentini hisobga olgan holda motivatsiya bera olishi ularni qo'llab-quvvatlash bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakillanishiga olib keladi.

- Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy sohasi boshqa bolalar bilan muloqot qilish, o'yinlar, shu jumladan, ijodkorlik, o'qish, ishlash, musiqa tinglash paytida shakllanib, sayqallanadi.

- Tarbiyachi va psixolglar hamkorligi orqali bolaalrda "Men" konsepsiyasini tarbiyalash kerak. Shu orqali bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari rivojlanib boradi.

- Bolaning ijtimoiy-hisiiy rivojlnishida ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi samarali hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish ham manfaatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z. T. Nishonova. M. Xolnazarova. "Rivojlanish psixologiyasi". Toshkent. 2019.
2. Kulagina I, Yu. Agepsychology (Development of a child from birth to 17 years), 1999 Allhusen, V., Belsky, J., Booth, C. et al. (2003).
3. Early child care and mother-child interaction from 36 months through first grade. *Infant Behavior and Development*, 26(3), 345-370.
4. Barbarin, O.A., Early, D., Clifford, R. et al. (2008). Parental conceptions of school readiness. *Early Education and Development*, 19(5), 671-701.
5. Belsky, J., Bakermans-Kranenburg, M. & Van IJzendoorn, M. (2007)



6. M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyeva “Yoshva pedagogik psixalogiya”
7. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova
“Rivojlanish psixalogiyasi pedagogik psixalogiya” kirobi Toshkent-2018